

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANOAT TARMOG‘INING
QO‘SHILGAN QIYMATI TARKIBI DINAMIKASINING STATISTIK
TAHLILI**

To‘raeva Zilola Turg‘unovna-
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiy statistika” kafedrası katta o‘qituvchisi,

**STATISTICAL ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF THE VALUE
ADDED STRUCTURE OF THE INDUSTRIAL SECTOR OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Turaeva Zilola Turgunovna-
Tashkent State University of Economics
Senior Lecturer, Department of “Economic Statistics”,

**СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДИНАМИКИ СТРУКТУРЫ
ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТИ ПРОМЫШЛЕННОЙ ОТРАСЛИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

Тураева Зилола Тургуновна-
Ташкентский государственный экономический университет
старший преподаватель кафедры «Экономическая статистика»,

***Annotatsiya.** Maqolada O‘zbekiston Respublikasining sanoat tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati tarkibi dinamikasining statistik tahlilining o‘ziga xos xususiyatlari, mamlakatimiz hududlari kesimida sanoat tarmog‘i faoliyati bo‘yicha statistik ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash masalalari yoritilgan.*

***Tayanch so‘zlar:** Sanoat, eksport, import, statistik baholash, investitsiya, loyiha.*

Abstract. The article discusses the specific features of the statistical analysis of the dynamics of the volume structure of the value added of the industrial sector

of the Republic of Uzbekistan, the issues of collecting and processing statistical data on the activities of the industrial sector in the regions of our country.

Keywords: Industry, export, import, statistical assessment, investment, project

Аннотация. В статье представлены особенности статистического анализа динамики структуры добавленной стоимости промышленной отрасли Республики Узбекистан, вопросы сбора, обработки и систематизации статистических данных о деятельности промышленной отрасли в разрезе регионов страны.

Ключевые слова: промышленность, экспорт, импорт, статистическая оценка, инвестиции, проекты.

Kirish

Mustaqillikning dastlabki yillarida yuqori inflyatsiya darajasi, ishsizlik va xo‘jalik aloqalarining izdan chiqishi sharoitida iqtisodiyotning real sektorida, xususan, sanoatda ishlab chiqarish sur‘atlarini saqlab qolish murakkab muammo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli Farmonida – “Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish uchun 2030-yilgacha yerishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Jumladan, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish”¹ kabi bir qator ustuvor vazifalar belgilandi

Davlat sanoat salohiyatini saqlab qolishga qaratilgan siyosat olib borib, o‘zak tarmoqlar - yoqilg‘i - energetika majmui va qishloq xo‘jaligiga o‘z tasarrufidagi resurslarni yo‘naltirdi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

Shu sababli, “Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi”²

Metodolgiya

Statistik kuzatish, guruhlash usullari, mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlar, grafik usullari qo‘llanilgan.


Natijalar

Yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati statistik tahlil qilish uchun ishchi-xodimlari malaka darajalarini oshirish maqsadida yetakchi mutaxassislar tomonidan malaka oshirish kurslari hamda xorijiy davlatlarda stajirovka o‘tash ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramasdan statistika idoralari xodimlarining sifat darajasini barqaror ushlab turish eng muammoli masalalardan hisoblanadi. Chunki yurtimizdagi statistika idoralarida hanuzgacha kadrlar qo‘nimsizligi darajasi o‘zining yuqoriligini saqlab kelmoqda. Kadrlar qo‘nimsizligi darajasi bo‘yicha shahar hududida faoliyat ko‘rsatayotgan statistika idoralari bilan tuman hududida faoliyat ko‘rsatayotgan statistika idoralari o‘rtasida ham tafovutlar juda yuqori hisoblanadi. Sanoatdagi iqtisodiy o‘sish mehnat, kapital va fan-texnika taraqqiyoti kabi omillarga bevosita bog‘liq. Iqtisodiy o‘sishning mehnat va kapital omillariga korrelyatsion bog‘liqlik darajasi yuqori hisoblanadi. Mamlakatimizda o‘tgan davrda sanoat ishlab chiqarishi hajmi, sohaga jalb qilingan investitsiyalar hajmi va tarmoqda band bo‘lganlar soni o‘zgarishi natijasida tarkibiy siljishlar ro‘y berdi.

Tahlil

2000 yildan boshlab eksportga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ustuvorlik berildi. Bu davrda mahalliy sanoatchilarning eksport imkoniyatlarini oshirish, sanoatga xorijiy kapital kirib kelishini rag‘batlantirish, eksport faoliyatini soliq, bojxona, valyuta va tashqi iqtisodiy siyosat orqali har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rildi.

² O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida” gi O‘RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz



1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasining 2024 yilda sanoat ishlab chiqarishi asosiy tarmoqlarining FHI³ % da

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 753,6 trln soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili boʻlib, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 1,9 % ga va suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilishda - 5,5 % ga, shuningdek, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 7,7 % ga hamda elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning - 5,5 % ga oʻsishi kuzatildi. (1-rasm)

Oʻzbekiston Respublikasining sanoat tarmogʻining qoʻshilgan qiymati hajmi (doimiy narxlarda, yillik) 2024 yilda 309185,7 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2020 yilga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 209,9 % ni tashkil etdi.

³ Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta o'sish darajasi ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning o'sish sur'ati (222,9 %)ni tashkil etdi. (1-jadval)

1-jadval

2020-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati hajmi (2023 yilgi doimiy narxlarida, yillik) tarkibi dinamikasi⁴

(mlrd.so'm)

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2024 yilda 2020 yilga nisbatan	
		2020	2021	2022	2023	2024	%	(+: -)
1.	Sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati	147293,5	176415,3	212562,2	255515,4	309185,7	161892,2	209,9
2.	Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	24076	24547,4	29185,4	33222,3	37061,9	12985,9	153,9
3.	Ishlab chiqarish sanoati	112751,8	138655,6	167983,8	203836,9	251281,3	138529,5	222,9
4.	Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	9528,1	12289,5	13988,4	16843,5	19070,4	9542,3	200,1
5.	Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	937,6	922,8	1404,6	1612,7	1772,1	834,5	189,0

“Sanoat korxonasi mahsuloti deb, uning foydali, faoliyatinnig natijasiga aytiladi. Ushbu ta'rifga asosan quydagilarni sanoat mahsuloti tarkibiga kiritilmaydi:

- a) ishlab chiqarilgan brak – foydasiz natija bo'lgani uchun;
- b) sotilgan ortiqcha tovar – material boyliklar – faoliyat natijasi bo'lmagan uchun;
- c) korxona tarkibida bo'lmagan qishloq xo'jaligi yoki boshqa tarmoq faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'limlar mahsuloti – ular o'sha tarmoq faoliyati natijasiga kiritiladi”⁵

⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁵ Nabiyeu X.N. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.

O'zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zgarishi dinamikasini tahlil qilganimizda, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 2024 yilda 365894,6 mlrd.so'mni, ya'ni 2023 yilga nisbatan 6,8 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. (2-jadval)

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zgarishi dinamikasi⁶ (2023 yilgi doimiy narxlarda)

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
Yalpi ichki mahsulot	mlrd.so'm	603956,2	721712,7	869779,8	1058383	1283346
	fizik hajm indeksi, % da	101,6	108	106	106,3	106,5
	deflyator indeksi, % da	111,6	113,6	113,8	112,2	113,1
Sanoat tarmog'ining QQ	mlrd.so'm	162013,3	202219,3	240210,4	289371,4	365894,6
	fizik hajm indeksi, % da	100,9	108,8	105,3	106,3	106,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining ishchi-xodimlari malaka darajalarini oshirish maqsadida yetakchi mutaxassislar tomonidan malaka oshirish kurslari hamda xorijiy davlatlarda stajirovka o'tash ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, sanoat korxonalari ishchi-xodimlarining sifat darajasini barqaror ushlab turish eng muammoli masalalardan hisoblanadi. Milliy sanoat va uning sohalari iqtisodiyotning dinamik o'zgarishda bo'lgan hamda ishlab chiqarish sur'atlari jadal oshayotgan tarmoqlari hisoblanadi.

Quyida O'zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillar bo'yicha sanoat tarmog'i qo'shilgan qiymati dinamikasining o'zgarishini tahliliy ko'rsatkichlarini keltiramiz.

O'zbekiston Respublikasida 2010-2024 yillar bo'yicha sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati 2024 yilda 365894,6 mlrd. so'mni, 2010 yilda 216131,3

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

mlrd.so‘m (taqqoslama bahoda) ni tashkil etgan yoki 2024 yilda 2010 yilga nisbatan 149763,30 mlrd.so‘mga yoki 69,3 foizga oshgan. (3-jadval)

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 2015-2024 yillar bo‘yicha sanoat tarmog‘ining qo‘shilgan qiymati dinamikasini o‘zgarishi

Yillar	Sanoat tarmog‘ining yalpi qo‘shilgan qiymati, mlrd.so‘m. (Y) (taqqoslama baholarda)	Absolyut qo‘shimcha o‘shish, ming kishi		O‘shish sur‘ati, %		Qo‘shimcha o‘shish sur‘ati, %		1 %li qo‘shimcha o‘shish(yoki kamayish)ning mutloq mohiyati, mlrd.so‘m
		Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	Bazisli	Zanjirli	
		$Y_i - Y_0$	$Y_i - Y_{i-1}$	$\frac{Y}{Y_0} \times 100$	$\frac{(Y_i/Y_{i-1})}{100} \times 100$	$\frac{[(Y_i/Y_0) - 100]}{100} \times 100$	$\frac{[(Y_i/Y_{i-1}) - 100]}{100} \times 100$	
2015	216 131,3	-	-	-	-	-	-	-
2016	227 802,4	11 671,10	11 671,10	105,4	105,4	5,4	5,4	2161,313
2017	239 648,1	23 516,80	11 845,70	110,9	105,2	10,9	5,2	2278,024
2018	265 530,1	49 398,80	25 882,00	122,9	110,8	22,9	10,8	2396,481
2019	278 806,6	62 675,30	13 276,50	129,0	105,0	29,0	5,0	2655,301
2020	281 315,8	65 184,50	2 509,20	130,2	100,9	30,2	0,9	2788,066
2021	306 071,6	89 940,30	24 755,80	141,6	108,8	41,6	8,8	2813,158
2022	322 293,4	106162,10	16 221,80	149,1	105,3	49,1	5,3	3060,716
2023	342 597,9	126466,60	20 304,50	158,5	106,3	58,5	6,3	3222,934
2024	365 894,6	149763,30	23 296,70	169,3	106,8	69,3	6,8	3425,979

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining 2010-2024 yillar bo‘yicha ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umuman olganda, sanoat ishlab chiqarish hajmining yillik qo‘shimcha o‘shishi sur‘ati bu yillarda o‘rtacha 5-6 foizdan iborat bo‘ldi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimizda chuqur tarkibiy siljishlar va iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarishini yanada jadalroq rivojlantirish imkoniyatlari ayniqsa, , yoqilg‘i-energetika, kime va neft kimyosi, oziq-ovqat hamda mashinasozlik sohalarida mavjud.

Sanoat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab olinib, uni amalga oshirishga kirishildi. Bu yo‘nalishlar yoqilg‘i - energetika majmuini jadal rivojlantirish; hamda neft va gaz qazib olishni kengaytirish chora-tadbirlarini ko‘rish; ishlab chiqarish va aholi uchun eng zarur investitsion va iste‘mol

tovarlarini chetdan olib kelishni qisqartirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olish; qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mahalliy sanoat imkoniyatlari negizida qayta ishlashni rivojlantirish; osh tuzi, spirt, gugurt kabi kundalik ehtiyoj tovarlarini ishlab chiqarishni tashkil etishdan iborat bo'ldi.

Sanoat korxonalarining rivojlanishiga qaratilgan barcha chora-tadbirlar korxonalarning iqtisodiy samaradorligi oshishiga xizmat qiladi. Korxonalar faoliyati samaradorligi, bozor muhitiga qay darajada moslashishi, unda faoliyat yuritishi bevosita uning raqobatbardoshligiga bog'liq. Ma'lumki, sanoat korxonalarining mahsulot raqobatbardoshligiga eng katta ta'sir etuvchi omillardan biri – ishchi-xodimlar raqobatbardoshligi hisoblanadi.

Milliy sanoat rivojlanishining iqtisodiy ahamiyati, asosan, uning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, qo'shilgan qiymat yaratish va milliy bozorni investitsion va iste'mol tovarlari bilan to'ldirishdagi roli bilan belgilanadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida sanoatning ko'proq xomashyoni qazib oluvchi, qayta ishlovchi va iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sohalari ustun rivojlandi. Buning natijasida yoqilg'i mustaqilligi ta'minlandi, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash darajasi ortdi, ichki iste'mol bozori mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlari bilan to'yintirilmoqda.

Keyingi yillarda iste'mol tovarlari hisoblangan gilam va gilam materiallari, paypoqlar, sut va sut mahsulotlari, konserva, un va un mahsulotlari, o'simlik yog'i va makoron mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ortmoqda. Ammo iste'mol tovarlarining qator turlarini ishlab chiqarishda barqaror tendensiya kuzatilmaydi. Xususan, paxta gazlamalar, ipak gazlamalari, trikotaj buyumlari va poyabzallar, shakar, non va non mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi pasayish tendensiyasiga ega.

Sanoat ishlab chiqarishida mamlakatimizning hududlari o'ziga xos o'rin tutadi. Hududlarda mineral-xom ashyo resurslarining notekis joylashganligi, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasining rivojlanish darajasi, tadbirkorlik va xususiy

sektorning taraqqiyot darajalariga ko'ra sanoat ishlab chiqarishi turlicha rivojlanmoqda.

Ma'lumki, tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini va iqtisodiyotdagi rolini ifodalovchi muhim jarayon bo'lib, uning natijasida ishlab chiqarish takomillashadi va tarmoqlarning jami ishlab chiqarishdagi salmog'i o'zgaradi. Tarkibiy o'zgarishlar takror ishlab chiqarishning hududiy va texnologik tuzilishini ham qamrab olganligi sababli yalpi ichki mahsulotning sifat jihatidan o'zgarishi ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasida sanoatning tarkibiy tuzilishi mustaqillik davrida keskin o'zgardi. Bunday o'zgarishning asosiy shart-sharoitlari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- mamlakatning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi- bu davlat miqyosida, tub iqtisodiy manfaatlarni hisobga olgan holda, yangi tarkibiy siyosat yuritish imkonini berdi;

- milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga qo'shilish jarayoni boshlanishi- ilgari yagona ittifoq xo'jaligining xom ashyo bazasiga aylangan O'zbekiston jahonning sanoati rivojlangan mamlakatlari bilan savdo va iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bu mamlakatning xom ashyo va mehnat resurslaridan xorijiy investorlar bilan hamkorlikda foydalanish uchun shart-sharoit yaratdi;

- mamlakatda bozor islohotlarining amalga oshirilishi - bozor munosabatlarining shakllantirilishi va xususiy mulkchilikning rivojlanishi ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatishning tarkibiy jihatdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Aholi va firmalar resurslarining sanoat ishlab chiqarilishiga jalb qilinishi tarkibiy o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligini oshirmoqda.

Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy yo'nalishi sanoatdagi o'zgarishlar hisoblanadi. sanoatda yangi texnologiyalarning o'zlashtirilishi va yangi korxonalarning qurilishi qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatishda ham ishlab chiqarish jarayonining takomillashishi hamda mehnat unumdorligining oshishini ta'minlaydi.

Sanoat korxonalarining aksariyati, dastlab import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'nalgan bo'lsa, keyinchalik ularning eksport strategiyasini amalga oshirish, xalqaro bozorga raqobatbardosh mahsulotlar bilan chiqish tendensiyasi kuchaydi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasining sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibi dinamikasining statistik tahliliga aks ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham mavjud bo'lib, ularning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish sanoat taraqqiyotini sur'atlarini oshiradi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin;

- xususiy sektor moliyaviy, investitsion va ilmiy-texnik salohiyatining sanoat loyihalarini amalga oshirish;
- sanoatning ayrim tarmoqlarida innovatsion faoliyatning yaxshi rivojlanmaganligi, ilg'or innovatsion yangiliklarning sanoat korxonalarida kam joriy etilish;
- sanoatda davlat va xususiy sektorning o'zaro iqtisodiy munosabatlar tizimi rivojlantirish;
- sanoatlashish jarayonini davlat tomonidan boshqarish mexanizmining takomillashtirish;
- bozor infratuzilmasining sanoatni jadal rivojlantirish talablariga mos rivojlantirish;
- mamlakatning geografik jihatdan anklav joylashganligi, rivojlangan bozorlardan uzoqligi, dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatlari va shart-sharoitlar yaratish.

O'zbekiston Respublikasining sanoat tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibining muhim iqtisodiy yo'nalishlaridan biri davlat tomonidan kichik sanoat shaharchalari, tashkiliy sanoat hududlari va erkin savdo-iqtisodiy hududlarining shakllanishi va rivojlanishini rag'batlantirishdan iborat. Bu sanoat siyosatining ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga, sohadagi texnologik - innovatsion taraqqiyotning jadallashishiga ham samarali ta'sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" gi PF-158-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida" gi O'RQ - 707 – sonli qonuni. 2021 yil. 11 avgust. . www.lex.uz.
3. Nabiyeu X.N. Sanoat statistikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.
4. www.stat.uz. - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.